

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

SENTYABR, 2025

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, sentyabr

TOSHKENT-2025

ISSN - 3093-8791

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.

VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
1-jild, 7-son (sentyabr, 2025-yil). – 81 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 25-avgust

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huqular himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Karimov Rustam

TO'QUV JARAYONIDA TANDA VA ARQOQ IPLARINING O'ZARO ISHQALANISHINING SIFAT VA ISH UNUMDORLIKGA TA'SIRINI O'RGANISH 5-11

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

Toxirov Kozim

MASOFADAN ZONDLASH MATERIALLARIDAN FOYDALANIB QISHLOQ XO'JALIK YERLARINI DEGRADATSIYAGA UCHRASH HOLATLARINI MONITORING QILISH 12-15

TARIX FANLARI

Rahmatov Muhiddin

XALQ DORILFUNUNI TARIXI VA FAOLIYATI 16-19

Norov Shuhrat

ZARAFSHON VOHASI YOSHLARI MISOLIDA: IJTIMOY FAOLLIK VA IQTISODIY ERKINLIK 20-23

Abdimurodova Zebiniso

TERMIZ MUZEYI — O'RTA OSIYO JANUBIDAGI ILK MUZEY 24-29

IQTISODIYOT FANLARI

Олеся Авдошкина

ВНЕДРЕНИЕ ЗАРУБЕЖНЫХ ПРАКТИК ГОСУДАРСТВЕННОЙ ФИНАНСОВОЙ ПОДДЕРЖКИ МАЛОГО БИЗНЕСА 30-35

Суюнова Саодат

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЙ И ЭКОТУРИЗМА 36-41

FILOLOGIYA FANLARI

Zokirova Barchinoy

LAKONIZMNING ADABIY-NAZARIY ASOSLARI VA USLUBIY TAMOYILLARI 42-45

Eshchanova Mavjuda

INGLIZ VA O'ZBEK MEDIA DISKURSIDAGI EVFEMIZMLARNING MADANIY FARQLARI VA ULARNING TARJIMADA SAQLANISHI MASALALARI 46-49

Razikov Baxtiyor

EMOJI VA HASHTAG BIRLIKLARI NEOLOGIZM SIFATIDA: FUNKSIONAL-PRAGMATIK KUZATUV 50-52

YURIDIK FANLARI

Nishanov Sanjar

SUDYALAR HUQUQIY ONGI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIGA TA'SIR QILUVCHI OB'EKTIV VA SUB'EKTIV OMILLAR 53-59

PEDAGOGIKA FANLARI

G'aniyev Shaxzod

TARIX O'QITUVCHILARI UCHUN RAQAMLI KONTENT YARATISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI 60-65

Najmetdinova Nargiza

TA'LIM JARAYONIDA SUN'IY INTELEKTDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASPEKTLARI 66-69

TIBBIYOT FANLARI

Yuldasheva Zulkhumor

COMPARATIVE OBSERVATION OF ARRHYTHMIAS IN HEALTHY PREGNANT WOMEN AND
THOSE WITH MITRAL VALVE PROLAPSE: A CLINICAL PERSPECTIVE 70-73

SIYOSIY FANLARI

Toshpulatov Shohruxbek

MARKAZIY OSIYODAGI LOGISTIK TARMOQ 74-80

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

MASOFADAN ZONDLASH MATERIALLARIDAN FOYDALANIB QISHLOQ XO'JALIK YERLARINI DEGRADATSIYAGA UCHRASH HOLATLARINI MONITORING QILISH

Toxirov Kozim Najim o'g'li

"O'zdavyerloyiha" davlat -ilmiy loyihalash instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada masofadan zondlash materiallaridan foydalanish hamda qishloq xo'jalik yerlarini monitoring qilish va degradatsiyaga uchragan yerlarni aniqlash, yerni masofadan zondlash va aero-kosmik suratlardan foydalangan holda amalga oshirilish bo'yicha ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Uchuvchisiz uchish qurilmalari yordamida maxsus hududlarda amaldagi qonunchilikka muvofiq amalga oshirilishi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: uchuvchisiz uchish qurilmalari, masofadan zondlash, respublikamizda qishloq xo'jaligi yerlarini monitoring qilish, aero-kosmik suratlardan foydalanish.

MONITORING OF AGRICULTURAL LAND DEGRADATION USING REMOTE SENSING MATERIALS

Tokhirov Kozim Najim ugli

Basic doctoral student of the State Scientific Institute of Project Management

"Uzdavyerloyiha"

Annotation. This article provides information on the use of remote sensing materials and the implementation of remote sensing of the land and the use of aerospace imagery for monitoring agricultural land and identifying degraded areas. It describes the implementation of unmanned aerial vehicles in special areas in accordance with current legislation.

Key words: unmanned aerial vehicles, remote sensing, monitoring of agricultural lands in our republic, use of aerospace imagery.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ymdif-y2025v1i7/n02>

Hozirgi vaqtda yerni masofadan zondlash masalasi tobora ommalashib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 10-iyundagi "Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-277-son qarori ijrosi yuzasidan, shuningdek, yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish va uning salbiy oqibatlarini yumshatish, hududlarda qurg'oqchilik va cho'llanishning oldini olish, tuproq unumdorligini saqlash va oshirish, degradatsiyaga uchragan yerlarni qayta tiklash, ushbu yo'nalishda ilg'or ilmiy ishlanmalar va innovatsiyalardan keng foydalanish maqsadida bir qator ishlar olib borilmoqda. Sun'iy yo'ldoshlardan olingan ma'lumotlar tufayli biz ma'lum hududlarda to'g'risida aniq ma'lumotlarni yangilashimiz va olishimiz mumkin.

Hozirda masofadan zondlashda uchuvchisiz uchish qurilmalari hukumatimiz topshirig'iga ko'ra "O'zdavyerloyiha" davlat ilmiy-loyihalash instituti tomonidan keng ko'lamdagi ishlarni bajarishda foydalanib kelinmoqda.

Yer maydonlarini AN-2 samolyoti va uchuvchisiz parvoz qiluvchi qurilmalar yordamida o'lchash natijalari taqqoslandi. Malum bo'lishicha, 50 ga yer maydoni samolyot yordamida 10

soatda o'rganilsa, uchuvchisiz parvoz qiluvchi qurilmalar qo'llanilganda xuddi shu hajmdagi ishlarga 2 soat sarflab zaruriy natijalar olish imkonini berdi. Bundan tashqari, ekinlarga agrodrone, paxtaga shamol yordamida purkagich moslamasi va samolyot yordamida ishlov berishning imkoniyatlari ham yuqori baholandi. Respublikamiz qishloq xo'jaligiga hozirgi kunda Phantom 4 Pro uchuvchisiz uchish apparatlari qo'llab kelinmoqda.



1-rasm. Phantom 4 Pro uchuvchisiz uchish apparati

Ishlab chiqaruvchi – DJI

Shenchjen Xitoy

Uchish vaqti – 30 minut

Uchish balandligi – 3 000 metgacha

Ishlash harorati – 0 dan +40 gacha

Bugungi kunda ahamiyatli vosita sifatida qaralishi mumkin bo'lgan masofadan zondlash, yer va atrof-muhit fanining deyarli barcha sohalarida qo'llaniladi. XXI asrda barqaror rivojlanishning ahamiyatini hisobga olgan holda, ushbu sharh masofadan texnologiyasidagi yutuqlar barqarorlikning uchta muhim sohasiga qanday ta'sir qilganini baholashga qaratilgan.

Masofadan zondlash texnologiyasidagi yutuqlar va katta hajmdagi ma'lumotlarning mavjudligi, ayniqsa geografik axborot tizimi (GIS) va mashinani o'rganish (ML) algoritmlari bilan birgalikda ma'lumotlarni tahlil qilishda katta yaxshilanishlarga olib keldi.

Respublikamizning yanada gullab yashnashi va rivojlanishi uchun, albatta yashash sharoitlarimizni yaxshilashga intilishimiz va fan-texnika yutuqlari zamonaviy usullardan samarali foydalanishni takomillashtirishimiz zarur. Bilamizki yildan-yilga yangidan yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Bulardan biri masofadan zondlash texnologiyasidir. U haqiqatan ham keng imkoniyatlarga ega. Hozirgi kunda masofadan zondlash samolyotlar orqali havodan va sun'iy yo'ldoshlar yordamida fazoviy usullardan foydalanib amalga oshirilmoqda. Shuningdek, masofadan zondlashda nafaqat fotoplyonkalar, balki raqamli fotoapparatlar, skanerlar, videolar, radar va termal sensorlar ishlatilmoqda.

Yerni masofadan zondlash orqali olingan ma'lumotlarning ko'lami oshgani sayin, kosmik kemalar va yerni masofadan zondlashning kosmik texnologiyalari faol rivojlanmoqda. Kosmik axborot sohasidagi global mahsulot va xizmatlar bozorining bunday jadal rivojlanishi yerni masofadan turib zondlash orqali olingan ma'lumotlar yanada qulayroq bo'lishiga va uni olish

arzonroq bo'lishiga yordam beradi. Natijada, ushbu ma'lumotni olish yanada qulayroq bo'ladi. Yerni masofadan zondlash tizimlarini rivojlantirish va takomillashtirish uchun maxsus sharoitlar davlatlar tomonidan tijorat asosida yangi kosmik kemalarni ishlab chiqish va ulardan foydalanishni rag'batlantiradigan harakatlar bilan yaratiladi.

Masofadan zondlash- inglizcha —Remote Sensing so'zlaridan olingan bo'lib, Remote-masofadan yoki uzoqdan, Sensing- ma'lumot olmoq yoki kuzatmoq degan ma'noni anglatadi. Masofadan zondlash masofadan turib obyektlar to'g'risida ma'lumotlar olish ma'nosini anglatadi.

T.f.d., prof. R.A.Turayev o'zining ilmiy-amaliy tadqiqotlariga asoslanib zamonaviy innovatsion texnologiyalar yer monitoringini yuritishda o'ziga xos afzalliklarga ega ekanligi, AN-2 samolyoti yordamida 100 ga maydonni o'rganishga 20 soat vaqt sarflanishi, uchuvchisiz uchish apparatlari qo'llanilganda esa huddi shu hajmdagi ishlarga 14 soat sarflanishini aniqlagan. Zamonaviy texnologiyalardan raqamli UltraCamX aerokompleksini AN-2 rusumli samolyot bortiga o'rnatish orqali olingan aerosuratlar asosida yaratilgan ortofotoplanlardan foydalanib 80% dala ishlarini kamaytirishga va kameral holda bajarishga erishish mumkinligini aniqlagan.

Q.x.f.f.d (PhD) katta ilmiy hodim O.O'.Davronov tomonidan yaylov yerlarini monitoring qilishda ana'anaviy usullarga nisbatan kosmo suratlardan foydalanish arzon va qulay usul hisoblanishi, asosiysi, Sentinel-2 kosmik suratlarining aniqlik darajasi 10 m ni tashkil etib, uni bepul yuklash va qayta ishlash afzalliklariga ega ekanligi hamda monitoring natijalari formatlarini ArcGIS dasturi formati bilan o'zaro integratsiya qilish orqali monitoring yuritishni yo'lga qo'yish zarur ekanligi keltirilgan.

Biz tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda an'anaviy va zamonaviy usullar yordamida tanlab olingan Buxoro viloyati Jondor tumani A. Temur massivida mavjud 216 294 gektar yaylov maydonlari monitoring qilinib, natijalar solishtirildi. An'anaviy usulda umumiy yaylov maydonini kuzatish jarayonida degradatsiyaga uchragan yerlarni aniqlash maqsadida 27 nafar mutaxassis bir oy davomida dala kuzatuvlarini olib bordi va olingan natijalarning aniqligi 80 foizni tashkil etdi.

Zamonaviy usulda, ya'ni Phantom 4 Pro kartografik droni yordamida monitoring ishlari olib borilganda atigi 4 nafar mutaxassis jalb qilinib, 15 kun davomida 95 foiz aniqlikka ega bo'lgan ma'lumotlarni olishga erishildi. Bu esa zamonaviy dron texnologiyalarining vaqt, mehnat resurslari va aniqlik ko'rsatkichlari bo'yicha an'anaviy usullarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega ekanini ilmiy asosda ko'rsatib beradi.

Yaylov yerlari monitoringida dronlardan foydalanish an'anaviy kuzatuv usullariga nisbatan yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi. Chunki keng hududlarni qisqa vaqt ichida kam xarajat evaziga kuzatish, yuqori aniqlikdagi tasvirlarni olish va ularni raqamli tahlil qilish imkoniyati mavjud. Masalan, geobotanik baholash yoki dala o'lchovlari uchun ko'p vaqt va mehnat talab qilinadigan jarayonlar dronlar yordamida avtomatlashtiriladi, bu esa xarajatlarni sezilarli kamaytiradi. Bundan tashqari, inson resurslaridan samarali foydalanish orqali vaqt tejash va monitoringni muntazam olib borish imkoniyati yaratiladi.

Natijaviy aniqlik nuqtayi nazaridan ham dron texnologiyalari an'anaviy usullardan ustun turadi. Olingan yuqori rezolyutsiyali aerofoto va videoma'lumotlar GIS dasturlariga integratsiya qilinib, o'simlik qoplamining zichligi, degradatsiya darajasi, tuproq eroziyasi va boshqa ekologik ko'rsatkichlarni fazoviy modelashtirish imkonini beradi. An'anaviy usullarda

mavjud bo'lgan sub'ektivlik va cheklangan hududiy qamrov o'rniga dron monitoringi keng maydonlarni to'liq va obyektiv tahlil qilish imkonini beradi. Shu sababli degradatsiyaga uchragan yerlarni aniqlashda dronlardan foydalanish nafaqat iqtisodiy tejamkor, balki ilmiy ishonchliligi va aniqligi yuqori bo'lgan yondashuv sifatida asoslanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasining "Geodeziya va kartografiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 02.07.2020 yil // lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 10-iyundagi PQ-277-son qarori.
3. Canadian Center for Remote Sensing (<http://www.nrcan.gc.ca/>): Tutorial, Fundamentals of Remote Sensing.
4. S. N.Abduraxmonov, S.Z.Safayev, Q. X.Niyozov. "Qishloq xo'jaligi yer hisobi kartalarni yaratish uslubiyati va kodlash uslubini takomillashtirish" monografiya Toshkent - 2022.
5. R.A.Turayev. "Sug'oriladigan yerlar monitoringini yuritish metodologiyasini takomillashtirish". Dissertatsiya (DSc): 06.01.10. –T.:2022.
6. Davronov O.O'.Masofadan zondlash orqali yaylov yerlari monitoringini yuritish (Buxoro viloyati misolida) Q.x.f.f.d.(PhD) diss.avtoreferati. - Toshkent, 2022.
7. Eshnazarov D.B Ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilashda raqamli texnologiyalardan foydalanish uslubiyotini takomillashtirish (Farg'ona viloyati misolida): Q.x.f.f.d.(PhD) diss.avtoreferati. - Toshkent, 2021.
8. Tashbayeva H.X. Sug'oriladigan yerlarning miqdoriy hisobini yuritish uslubini takomillashtirish (Qashqadaryo viloyati misolida): Q.x.f.f.d.(PhD) diss.avtoreferati. - Toshkent, 2022. - 41 b.
9. www.fotogram.ru
10. www.bolshe.ru
11. <http://www.GIS.ru>

**YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**
VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, sentyabr

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
1-jild, 7-son (sentyabr, 2025-yil). – 81 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 25-avgust

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.